

## **Korrupsiyaga qarshi “Komplayens – nazorat” tizimi nima?**

“Komplayens”, “komplayens – nazorat” tushunchalari – rozilik, muvofiqlik va aniq belgilangan qoida, standart hamda ko‘rsatmalarga muvofiq faoliyat yuritish degan ma’nolarni anglatadi.

Xalqaro tajribada “komplayens – nazorat” tizimining bir necha shakllari mavjud. Bular:

- Tibbiyot;
- Davlat fuqarolik xizmati;
- Bank;
- Bojxona sohasi;
- Jinoiy daromadlarni legallashtirish;
- Manopoliyaga qarshi kurash;
- Korrupsiyaga qarshi kurash;

kabi yo‘nalishlarda joriy etiladigan “komplayens – nazorat” hisoblanadi.

Ilg‘or xorijiy davlatlar tajribasida keng tarqalgan shakllardan biri korrupsiyaga qarshi “komplayens – nazorat” tizimidir.

### **Korrupsiyaga qarshi “Komplayens – nazorat” tizimi. O‘zi qanday tizim?**

davlat organlari va xo‘jalik yurituvchi sub’ektlar, banklar va xususiy sektor faoliyatini korrupsiyaga qarshi kurashish sohasidagi xalqaro standartlar, qonun va boshqa me‘yoriy – huquqiy hujjatlarga muvofiq tashkil etilishini ta‘minlovchi, korrupsiya xavf – xatarlari va manfaatlar to‘qnashuvini o‘z vaqtida aniqlash hamda ularga chek qo‘yish, qonun buzulishi va korrupsiyaga oid huquqbuzarliklar haqida xabar berish kabi qator profilaktik choralarni o‘zida mujassam etgan samarali tizimdir.

### **“Komplayens – nazorat” tizimining xalqaro prinsiplari.**

**Xalqaro – huquqiy hujjatlarda “Komplayens – nazorat” tizimining quyidagi 10 ta prinsiplariga ahamiyat qaratiladi.**

**Shaxsiy namuna** – rahbariyat tomonidan korrupsiyaga qarshi kurashish sohasidagi tashabbuslarni qo‘llab – quvvatlash, rag‘batlantirish va bunda jamoaga shaxsan namuna bo‘lish.

**Korrupsiyaga nisbatan murosasizlik** – xodimlarni korrupsiyaga nisbatan “0” (nol) darajadagi murosasizlik madaniyatini shakllantirish.

**Ochiqlik va shaffoflik** – faoliyatda ochiqlik va shaffoflikni ta‘minlash.

**Xabar berish siyosati** – qonun buzulish, manfaatlar to‘qnashuvi va korrupsiyaga oid huquqbuzarliklar haqida xabar berish tartibi.

**Komplayens dasturi** – korrupsiyaga qarshi kurashish siyosatini qamrab oluvchi jarayonlar.

**Komplayens xodim** – tashkilotda korrupsiyaga qarshi kurashish faoliyatini samarali yuritish uchun javobgar shaxs.

**Korrupsiyaviy xavf – xatarlarni baholash** – faoliyatni turli korrupsiyaviy xavf – xatarlardan himoya qilish va ularni baholab borilishini monitoring qilish.

**Samaradorlik va malaka oshirish** – xodimlarni korrupsiyaga qarshi madaniyati va bilimni muntazam oshirib borish maqsadida o‘qitish.

**Tizimli tahlil** – korrupsiyaga qarshi “Komplaens – nazorat” xizmatining samarali faoliyat yuritib borishini muntazam ravishda baholab, monitoring qilish.

**Kontragent** – uchinchi tomon shaxslarning ishonchligini baholash.

### **Korrupsiyaga qarshi “Komplayens – nazorat” tizimining qanday shakllari mavjud.**

“Komplayens – nazorat” tizimini o‘zida joriy etgan xorijiy davlatlar (*AQSh, Buyuk Britaniya, Xitoy, Sloveniya misolida*) tajribasi va xalqaro kompaniyalar amaliyoti asosida Korrupsiyaga qarshi “komplayens – nazorat” xizmatining **3 xil modelga** ajratish mumkin.

- ✓ **“ixtisoslashgan Korrupsiyaga qarshi “komplayens – nazorat” xizmati modeli”**da Korrupsiyaga qarshi “komplayens – nazorat” xizmatining asosiy vazifasi kompaniyaning faoliyati va korrupsiyaga qarshi kurashish siyosatini xorijiy davlatlar va tashqi bozor qonunlariga muvofiq tashkil etish hamda kompaniya yoki tashkilotning xalqaro doiradagi imidjini oshirishga qaratilgan bo‘ladi;
- ✓ **“moslashgan Korrupsiyaga qarshi “komplayens – nazorat” xizmati modeli”**da asosan kompaniya va tashkilotning ichki tizimida korrupsiyaga qarshi kurashish siyosati amalga oshiriladi va muntazam ravishda faoliyatni turli korrupsiyaga oid huquqbuzarliklarning oldini olish hamda xavf – xatarlarni o‘z vaqtida aniqlash kabi ichki profilaktik choralarni tatbiq etishga qaratilgan bo‘ladi;
- ✓ **“aralash” Korrupsiyaga qarshi “komplayens – nazorat” xizmati modeli”**ning vazifasi kompaniya va tashkilotning milliy va xalqaro doiradagi nufuzini saqlash, korrupsiya holatlari sodir etilishiga qarshi kurashish va bu boradagi faoliyatni milliy qonunchilik hamda o‘rnatilgan qoidalarga muvofiq tashkil etishdan iboratdir.

Mazkur modellarning o‘zaro farqli jihati, ularning tashkilot tizimida joriy etishdagi shakli, tartibi hamda ushbu tizimning asosiy vazifasi hisoblanadi.

Jumladan, **birinchi modelda**, korrupsiyaga qarshi “komplayens – nazorat” tuzilmasi tashkilotning korrupsiyaga qarshi faoliyati va umumiy siyosati ushbu sohadagi xalqaro tavsiyalar, standartlar va tashqi bozor qonunlariga muvofiq tashkil etiladi hamda tashkilotning aynan **xalqaro doiradagi imidjini** oshirishga xizmat qiladi.

**ikkinchi modelda**, tashkilotda mazkur tizimning joriy etilishini milliy qonunchilik me‘yorlari yoki korrupsiyaga qarshi kurashishga oid asosan ichki qoidalar bilan tartibga solinadi hamda joriy etishning minimal talablari bilan cheklanadi. Mazkur shaklda ichki qonunchilik normalarida ko‘zda tutilmagan va korrupsiyaviy xavf – xatarlariga mos keladigan qo‘shimcha profilaktik qoidalarni joriy etish mumkin bo‘ladi.

**uchinchi modelda**, tashkilotning har ikki jarayonda, ya‘ni milliy va xalqaro doiradagi imidjini himoya qilish, oshirishga xizmat qiladi, bunda nafaqat milliy qonunchilik va xalqaro normalar, balki xorijiy davlatlarning ushbu sohadagi qonun hujjatlarida aks etgan normalarni o‘z faoliyatida joriy etish mumkin bo‘lgan **universal (gibrid) tizim** hisoblanadi.

## **Korrupsiyaga qarshi ichki nazorat (komplayens) tizimining huquqiy asoslari.**

Korrupsiyaga qarshi kurashda alohida ahamiyat kasb etadigan “muvofiqlik tizimi” (*komplaens*) tushunchasi milliy qonunchiligimizdagi bir qator hujjatlarda aks etgan, jumladan,

### **1. O‘zbekiston Respublikasining 2017 yil 3 yanvardagi “Korrupsiyaga qarshi kurashish to‘g‘risida”gi qonuni.**

Mazkur qonunda ilk marotaba quyidagi tushunchalarga normativ ta’rif berildi:

- **korrupsiya** – shaxsning o‘z mansab yoki xizmat mavqeidan shaxsiy manfaatlarini yohud o‘zga shaxslarning manfaatlarini ko‘zlab moddiy yoki nomoddiy naf olish maqsadida qonunga xilof ravishda foydalanishi, xuddi shuningdek, bunday nafni qonunga xilof ravishda taqdim etishi;
- **manfaatlar to‘qnashuvi** – shaxsiy (bevosita yoki bilvosita) manfaatdorligi uning o‘z lavozim yoki xizmat majburiyatlarini lozim darajada bajarishiga ta’sir ko‘rsatayotgan yoxud ta’sir ko‘rsatishi mumkin bo‘lgan hamda shaxsiy manfaatdorlik bilan fuqarolarning, tashkilotlarning, jamiyatning yoki davlatning huquqlari, qonuniy manfaatlari o‘rtasida qarama-qarshilik yuzaga kelayotgan (*mavjud manfaatlar to‘qnashuvi*) yoki yuzaga kelishi mumkin bo‘lgan (*ehtimoliy manfaatlar to‘qnashuvi*) vaziyat;
- **korrupsiyaga oid huquqbuzarliklar** – korrupsiya alomatlariga ega bo‘lgan, sodir etilganligi uchun qonun hujjatlarida javobgarlik nazarda tutilgan qilmish.

Korrupsiyaga qarshi “komplaens – nazorat” tizimining muhim tarkibiy elementlaridan biri bo‘lgan korrupsiyaviy huquqbuzarliklar haqida xabar berish tartibi keltirilgan.

### **Qonunda ilk marotaba davlat xizmatchilarining korrupsiya holatlari haqida xabar berish majburiyati belgilandi.**

Unga ko‘ra, “davlat organlarining xodimlari ularni korrupsiyaga oid huquqbuzarliklar sodir etishga ko‘ndirish maqsadida biron – bir shaxs o‘zlariga murojaat etganligiga doir barcha holatlar to‘g‘risida, shuningdek, davlat organlarining boshqa xodimlari tomonidan sodir etilgan shunga o‘xshash huquqbuzarliklarning o‘zlariga ma’lum bo‘lib qolgan har qanday faktlari haqida o‘z rahbarini yoxud huquqni muhofaza qiluvchi organlarni xabardor etishi shart” (*Qonunning 26 – moddasi*).

**2. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019 yil 27 maydagi “O‘zbekiston Respublikasida korrupsiyaga qarshi kurashish tizimini yanada takomillashtirish chora – tadbirlari to‘g‘risida”gi PF – 5729 – son Farmoni.**

**3. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2020 yil 17 fevraldagi 72 – F – son Farmoyishi.**

**Unga ko‘ra, davlat tashkilotlarida korrupsiyaga qarshi “komplayens – nazorat” tizimini joriy etishning ustivor vazifari etib quyidagilar belgilandi;**

- ✓ korrupsiya xavf – xatarlarini o‘z vaqtida aniqlash, ularga chek qo‘yish, ularning oqibatlarini, ularga imkon beruvchi sabablar va shart – sharoitlarni bartaraf etish ularni minimum darajaga tushurish;
- ✓ davlat organlari va tashkilotlarning hisobdorligi va faoliyatining shaffofligini oshirish;
- ✓ xodimlar tomonidan kasbiy odob – axloq qoidalariga qat’iy rioya etish va xizmat vazifalarini bajarishda manfaatlar to‘qnashuvi haqida xabar berish va ularni hal qilish masalalarini tartibga solish;
- ✓ idoraviy chora – tadbirlarni amalga oshirish ustidan ichki nazorat mexanizmlarini kuchaytirish;
- ✓ korrupsiyaga qarshi kurashishi sohasida umume’tirof etilgan xalqaro standartlar va chet el ijobiy tajribasini joriy etish.

4. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020 yil 29 iyundagi “O‘zbekiston Respublikasida korrupsiyaga qarshi kurashish tizimini takomillashtirish bo‘yicha qo‘shimcha chora – tadbirlar to‘g‘risida”gi PF–6013–son Farmoni.

5. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021 yil 6 iyuldagi “Korrupsiyaga qarshi murosasiz munosabatda bo‘lish muhitini yaratish, davlat va jamiyat boshqaruvida korrupsiyaviy omillarni keskin kamaytirish va bunda jamoatchilik ishtirokini kengaytirish chora – tadbirlari to‘g‘risida”gi PF–6257–son Farmoni.

6. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021 yil 6 iyuldagi “Korrupsiyaga qarshi kurashish faoliyatini samarali tashkil etishga doir qo‘shimcha chora – tadbirlar to‘g‘risida”gi PQ–5177–son Qarori.

7. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022 yil 11 maydagi “Davlat boshqaruvi sohasida korrupsiyaviy xavf – xatarlarni bartaraf etish mexanizmlarini takomillashtirish va ushbu sohada jamoatchilik ishtirokini kengaytirish chora – tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ – 240 – sonli Qarori qabul qilindi.

### **Korrupsiyaga qarshi ichki nazorat tizimi tashkilotlarga nima beradi?**

- tashkilot va uning tizimida korrupsiyaga qarshi kurashish bo‘yicha ISO37001:2016 xalqaro standarti talablariga javob beruvchi kompleks tizimini joriy etish;
- korrupsiyaviy holatlarni barvaqt aniqlash va ularning sabab va shart – sharoitlarini bartaraf etish;
- korrupsiyaviy xatti – harakatlar sodir etilishining oldini olish;
- tashkilot tizimi xodimlarida korrupsiyaga nisbatan murosasiz munosabatni shakllantirish maqsadida ularning huquqiy ongi va madaniyatini oshirish;
- tashkilot tizimida korrupsiyaga qarshi profilaktik chora – tadbirlarni tashkil etish;
- korrupsiyaga qarshi kurashish sohasidagi hujjatlar (*xalqaro va milliy*) ijrosini ta’minlash va tashkilotda korrupsiyaga qarshi kurashishning ta’sirchan mexanizmlarini samarali tashkil etilishiga qaratilgan boshqa choralardan iborat.

## **Korrupsiyaga qarshi ichki nazorat tuzilmasi kim?**

Korrupsiyaga qarshi ichki nazorat tuzilmasini tashkil etishdagi asosiy omil kadrlar masalasidir. Xalqaro tajribada mazkur faoliyatni amalga oshiruvchi mutaxassis “komplayens xodim” deb yuritiladi.

**Korrupsiyaga qarshi kurash ichki nazorat tuzilmasi xodimi** – tashkilotda xodimlar tomonidan kasbiy odob – ahloq qoidalariga qat’iy rioya etilishi, xizmat vazifalarini bajarishda manfaatlar to’qnashuvining yuzaga kelishini oldini olish ustidan nazoratni amalga oshiruvchi hamda tashkilotda korrupsiyaga qarshi kurashish va uning oldini olish siyosatini yuritish uchun mas’ul bo’lgan xodim.

## **Korrupsiyaga qarshi ichki nazorat tuzilmasining asosiy vazifalari nimalardan iborat?**

Korrupsiyaga qarshi ichki nazorat tuzilmasining asosiy vazifalari quyidagilar hisoblanadi:

- ✓ Tashkilotning korrupsiyaga qarshi kurashish bo’yicha faoliyatini takomillashtirish;
- ✓ Tashkilotda korrupsiyaga oid huquqbuzarliklarni profilaktika qilish va ularga qarshi kurashish;
- ✓ Tashkilotda korrupsiyaga qarshi kurashish tizimining samarali ishlashini ta’minlash va nazorat qilish.
- ✓ Korrupsiyaga qarshi kurashish bo’yicha faoliyatni amalga oshiruvchi hamda unda ishtirok etuvchi boshqa davlat organlari va tashkilotlari bilan hamkorlik olib borish.

## **Korrupsiyaga qarshi ichki nazorat tuzilmasining huquqlari nimalardan iborat?**

- Tashkilot xodimlaridan ularning vakolatiga kiruvchi masalalar yuzasidan tahliliy materiallarni, xulosalarni, statistik va boshqa ma’lumotlarni olish;
- Xizmat majburiyatlarini bajarish doirasida tashkilot xodimlaridan zarur yordam so’rash va olish;
- Tashkilot tizimi xodimlari faoliyatida aniqlangan korrupsiyaviy huquqbuzarliklar yuzasidan xizmat tekshiruvlarini o’tkazish (*Xizmat tekshiruvi o’tkazish to’g’risida qaror qabul qilish uchun ommaviy axborot vositalarining xabarlari, xodimning bevosita rahbarining bildirgisi, jismoniy va yuridik shaxslarning murojaatlari hamda xodim tomonidan intizomiy qilmish sodir etilgan deb taxmin qilish uchun asos beradigan boshqa ma’lumotlar asos bo’ladi Mehnat mehnat kodeksining 303 - moddasi*);
- Rahbar topshirig’i yoki kengashi qarori asosida mavjud korrupsiyaviy holatlar yuzasidan xodimlardan tushuntirish talab qilish;
- Korrupsiyaga moyil bo’lgan xodimlar bilan mehnat shartnomasini bekor qilish bo’yicha rahbar yoki kuzatuv kengashiga taklif kiritish;
- Tashkilot rahbariyatiga korrupsiyaga qarshi kurashish tizimini takomillashtirish bo’yicha takliflar kiritish;
- O’z faoliyati doirasida tashkilot tizimiga yozma ko’rsatmalar, topshiriq xatlari va tavsiyalar berish;
- Tashkilotning korrupsiyaga oid majlislarida ishtirok etish;

- Tashkilot tomonidan tashkil etiladigan turli tanlov komissiyalarida (*ishga qabul qilish, davlat xaridlari va boshqa*) kuzatuvchi yoki a'zo sifatida ishtirok etish.

**Korrupsiyaga qarshi kurashish  
“Komplayens-nazorat” tizimini  
boshqarish bo‘limi**